

ZAMONAMIZNING TARIXIY ROMANI

Go'zal Atabayeva,
Nizomiy nomidagi TDPU
PhD dots.v.b.,

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy roman tahlilga tortilgan. Badiiy to'qima va tarixiy haqiqat uyg'unligi, yozuvchi mahorati, zamonaviy o'zbek adabiyotidagi tarixiy romanlarning o'ziga xosliklari, tarixiy qahramon yaratishda o'sha davr ruhini beruvchi omillar haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, tarixiy qahramon, badiiy to'qima, hayotiy haqiqat, ijodkor uslubi, badiiy asar tili.

Annotatsiya. V dannoy statye analiziruyetsya istoricheskiy roman. Privodyatsya kommentarii o garmonii xudojestvennoy faktury i istoricheskoy deystvitelnosti, pisatelskom masterstve, osobennostyax istoricheskix romanov v sovremennoy uzbekskoy literature, faktorax, peredayuyux dux togo vremeni v sozdanii istoricheskogo geroya.

Klyuchevye slova: istoricheskiy roman, istoricheskiy geroy, xudojestvennaya tkan, realnaya jizn, tvorcheskiy stil, yazyk xudojestvennogo proizvedeniya.

Annotation. This article analyzes the historical novel. There are comments about the harmony of artistic texture and historical reality, writer's skill, peculiarities of historical novels in modern Uzbek literature, factors that give the spirit of that time in creating a historical hero.

Key words: historical novel, historical hero, artistic fabric, real life, creative style, language of artistic work.

Milliy adabiyotimizda tarixiy romanlar talaygina. Ular millatimiz tarixini qayta jonlantirishmoqda. Zamonaviy o'qirmanning tarixiy qahramonni tahlil qilishi va asarga munosabati, shu kungacha yaratilgan tarixiy romanlardan farqli ravishda ijodkor uslubining namoyon bo'lishi kabi jarayonlarni talab etadi. Ma'lumki, biror asar yozilganda yozuvchi undagi voqealarni va qahramonlarni tarixiy manbalarga tayanib, hayotiy haqiqat va badiiy uydurmalarini uyg'un holda badiiyatga singdirishi, voqealar rivojiga kitobxonni bog'lay olishi kabi murakkab jarayonlardan iborat.

Yozuvchi Isajon Sultonning buyuk allomamiz Abu Rayhon Beruniyga bag'ishlab yozgan "Beruniy" romani jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olindi. Adib ushbu asar manbalari ustida muttasil izlanishlar olib borganligi roman sujeti va kompozitsiyasidagi o'ziga xoslikda namoyon bo'ladi. Yozuvchi tarixiy asar ustida ishlar ekan, o'sha davr va tarixiy shaxslari bilan bog'liq qator faktlar, qo'llanmalar, risolalar, tazkiralarni o'rganib chiqqan bo'lishi kerak. Natijada bu ma'lumotlar asar yozilish jarayonida, qaysidir sujet linyasi qurilishiga asos bo'lishi mumkin. Isajon Sulton ham Beruniy va unga aloqador shaxslar hayotini chuqur o'rgangan va ularni kezi kelganda asarda so'zlatgan. Bundan tashqari zamonaviy o'zbek adabiyotida tez-

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

tez duch kelayotganimiz roviy va uning sujetdagi o‘rni hususida ham o‘z uslubini namoyon eta olgan.

Asar qurilishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u xronologik sujet asosida qurilgan bo‘lib, voqealar rivoji Beruniyning o‘smirlik chog‘idan boshlab to o‘limiga qadar uni tanigan, ko‘rgan, yonida hamroh bo‘lgan insonlarning Beruniy haqida anglatgan hikoyalaridan tashkil topgan. Muallif ishtiroki asarda yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Go‘yoki roviy tilidan aytilganday voqealar rivoji davom etadi. Bu esa yozuvchining ushbu yo‘nalishda mahorat bilan qalam yurgiza olganligidan darak beradi.

Shuningdek, asarda biz ko‘plab tarixiy shaxslarga duch kelamiz va ular haqida yangi ma‘lumotlarni bilib olamiz. Jumladan, Mansur Ibn Iroq – Beruniyning ilk homiysi va ustozlaridan biri bo‘libgina qolmay, ayni paytda o‘sha davr hukmdorlariga aqrabo ham bo‘lgan. Mashhur tabib - Abu Saxl Masihiy esa nasroniy ya‘ni xristian diniga e‘tiqod qilgan ekan. Asarda Beruniy eng ko‘p murojaat qilgan shaxs esa Beruniyning xizmatkori Abu Fazldir. Asar turli shaxslar tomonidan hikoya qilinsa-da, Abu Fazl asar so‘ngini Beruniy haqidagi xotiralar bilan yakunlaydi. Abu Fazlning samimiyati, Beruniyga sadoqati, ilm ahliga bo‘lgan munosabati bo‘rttirishlarsiz tabiiy obrazda namoyon bo‘lgan.

Abu Rayhon Beruniyning ustozlari Mansur ibn Iroq bo‘lgani, Beruniyning zakovati, qobiliyatidan mamnun bo‘lgani haqida xulosa qilamiz. Abu Rayhon Beruniyni ko‘plab shohlar qo‘llab-quvvatlagan, uning har bir qilgan ishlarida yordam berishgan. Shuningdek, Beruniy umri davomida besh hukmdorga xizmat qilganligi bayon qilingan. Bular Nuh ibn Mansur, Shamsulmaoliy – Qobus ibn Vushmgir, Xorazmshoh Ma‘mun, Sulton Mahmud G‘aznaviy va Mas‘ud G‘aznaviylardir. Alloma o‘zining mashhur “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarini Shamsulmaoliy hukmronligi ostida yozib tugatadi. Keyinchalik, Sulton Mahmud G‘aznaviy hukmronligi davrida esa “Hindiston”, “Saydana” nomli asarlarini yozgan. Shogirdi va keyinchalik hukmdori bo‘lmish Mas‘ud G‘aznaviyga bag‘ishlab, “Qonuni Mas‘udiy” asarini yozgan. Ba‘zi shohlar Abu Rayhon Beruniyga qilgan xizmati uchun pul va qullar bergan. Ammo u mol dunyoga qiziqmagan. Ular menga xalaqit beradi deydi Beruniy. U oddiy holda yashashni joiz ko‘rgan. Beruniy juda ham zukko, bilimga intiluvchan inson bo‘lgan, xuddi xazinaga teng inson bo‘lgan degan umumiy xulosalarni beradi.

Beruniy doimo ilmga chanqoqligi, dunyo mollari va nafsga berilmasligi hamda to‘g‘ri so‘zligi bilan barchaning hurmatini birdek qozongan. Hukmdorlar uni bir necha bor oltin, kumush bilan mukofotlaganda ham, ularni rad etadi va uning o‘rniga hukmdor kutubxonasidan foydalanish ruxsatini oladi. Asardagi suhbatlar va dialoglar ham ancha mazmundor va salmoqli ma‘noga ega. Beruniy atrofidagi odamlarga

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ma'lum bir masalani sodda yo'sinda tushuntirib beradi. Olimlar davrasida esa keng istilohiy atama va tushunchalar turli xil masalalar ilmiy til orqali tushuntirilgan. Dialoglarda qahramon xarakterini ko'rsatuvchi matnga murojat qilsak. Jumladan, Beruniy ketayotgan bir karvon talanganda, qaroqchiboshi Beruniyning olim ekanligini bilib, unga qarata shunday deydi: “Hukmdorlar bilan nima ishing bor? Ular ham biz qilgan ishni qilishadi. Farqimiz shuki, ular qonun joriy qilib talashadi, biz esa unday hiylalarga bormay, to'g'ridan-to'g'ri talayveramiz.” Qaroqchiboshi ham ilm ahliga hurmat ko'rsatishi matnning bir tomonlama tahlilida ko'rinib, ikkinchi tomondan davlat siyosatiga munosabati qaroqchilarga xos shaklda namoyon bo'lganligini ko'ramiz.

Asarda biz yangi so'z va iboralarga duch kelishimiz mumkin. Shulardan biri – *taylason* so'zi va bu Beruniyning tashqi qiyofasini tasvirlashda bir necha bor qo'llangan. Keyinchalik esa bunga izoh berilgan. Ya'ni, *taylason* – sallaning yelkaga tushib turadigan lenta qismi. Beruniy esa “Osorul boqiya” ya'ni “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida bir jadvalni *taylason*li qilib tuzdi deb aytiladi. Yana bir so'z esa *zo'ldir* so'zi bo'lib, u Zardusht haqidagi rivoyatda keltirilgan, dumaloq shar ma'nosida qo'llangan.

Asarda folklor namunalaridan ham keng foydalanilgan. Jumladan, “og'zi oqlikka yetdi” atamasi qo'y-sigirlar endi tug'ganda, yangi sutning sog'ib olinishiga nisbatan aytiladi, ba'zi hududlarda esa bu ibora “og'iz suti” deb ham aytiladi. Yana bir hudud so'zi bu bichakdir. Bichak xamir ichiga go'sht yoki o't solib, tandirda yopiladigan taomdir. Beruniy ushbu taomni onasi bolaligida unga tayyorlab berganini xotirlaydi. Ushbu taom hozir ham Xorazm, Samarqand va voha diyorlarida tayyorlanadi.

Alloma ismiga esa quyidagicha ta'rif berilgan: Asl ismi Muhammad, laqabi Abu Rayhon Beruniy. Boisi, u rayhonni va uning iforini juda yaxshi ko'rgan. Sulton Mahmud G'aznaviy esa undan nega Beruniy deb taxallus olganini so'raydi, shunda Beruniy olis Qiyot qishlog'idan Gurganchga kelganlarida bolalar unga shu laqabni berishganini, ya'ni o'zga yurtlik, sayyoralik deyishganini aytadi va so'zi so'ngida barchamiz ham o'zga sayyoralikmiz va alal-oqibat o'zga sayyoralarga ketamiz deydi. Beruniyning islom ilmidagi mukammalligi, go'zal hulqlari ilmi va amali uyg'un inson ekanligi asar davomida o'z isbotini topib boradi.

Romanda Beruniy haqida yozilgan boshqa asarlardagi ma'lumotlar bilan o'xshashliklar va tafovutlar bor. Jumladan, Odil Yoqubovning “Ko'hna dunyo” romanida Mahmud G'aznaviy o'ta zolim tasvirlangan bo'lsa, bu asarda adolatli, oqil hukmdor qilib tasvirlangan. Shuningdek, “Ko'hna dunyo”da Rayhona ismli qiz obrazi Beruniyning ilk yoshlik chog'laridagi sevgilisi sifatida gavdalantirilgan bo'lsa,

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

“Beruniy” romanida do‘stining qizi bo‘lib, alloma do‘stining iltimosiga ko‘ra bu qiz uchun al jabr va al muqobalani yengil o‘rganishga doir kichik risola yozgan.

Beruniy yer yuzining diametrini bugungi o‘lchovlarga yaqin tarzda hisoblagan. Geodeziya ilmiga asos solgan, trigonometriyaning astronomiyadan ajratilishi kerakligini ham ta‘kidlagan. Yerning tortishish qonunini ham aniqlagan, yulduzlar orqali yo‘lni topishni ham aniqlagan.

Abu Rayhon Beruniy timsolida bir komil inson hayoti davomida nimalar qila olishi mumkinligini adib o‘z ijodiy mahorati bilan real ifoda eta olgan.

Asar o‘ziga xos kompozitsion tuzilishga ega. Sodda va tushunarli tilda yozilgan. Biz asarni o‘qish davomida ko‘plab tarixiy va badiiy haqiqatlarning guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ushbu yo‘nalishdagi tarixiy romanlarning ko‘payishi omma uchun, tarixiy shaxslar va ularning hayotiga doir olis o‘tmishning qimmatli ma’lumotlarini bilib olishiga va bu shaxsga nisbatan tasavvurlarining kengayishiga, ajdodlar merosini o‘rganishdagi badiiy estetining oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida adibning fikrlarini keltirishni o‘rinli deb bildik. “Urushlar tugadi, kishilarning qoni yerga singib ketdi o‘rniga uzumzorlar barpo bo‘ldi, u uzumlardan totli sharbatlar siqib olindi “ ana o‘sha sharbat- tarixiy asarlar desak, ne ajab?”

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boltaboyev H. Nasr va uslub. –T.: Fan, 1992. –B.104.
2. Do‘stmuhammad X. Ijod – ko‘ngil munavvarligi. – T.: Mumtoz so‘z, 2011. – 316 b.
3. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
4. Atabayeva.G.F. “Humanizm in the novel of A. Yakubov” aktualnye problemy tyurkologii: rossiya i tyurko-musulmanskiiy 2021 MIR
5. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.
6. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.
7. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
8. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
9. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

10. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
11. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
12. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy’s creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.
13. Atabayeva, G. Z. (2024). NIZOMIY GANJAVIYNING “XAMSA” ASRIDAGI OBRAZLAR TAHLILI VA GENEZISI. 2-SBİN, 1-YIL YANVARYA 2024-GO-1-YIL KISHM, 12.
14. Burxanova, Feruza. "JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.20 (2024): 68-78.
15. Kadirova, M. (2022). The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(03), 1-6.
16. Umida, R. (2024). THE RELEVANCE OF RHYTHM IN PROSE FICTION. *Journal of Modern Educational Achievements*, 1(1), 288-294.